

**BUYUK AJDODLARIMIZNING FAN VA MADANIYAT
RAVNAQIDAGI O‘RNI**

*Bux DPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
1-MIG ‘-22 guruhi talabasi To‘xtayeva Shahinabonu
+998(99)7025424*

Annotatsiya: Bu maqolada IX -XII asrlarda yashab ijod qilgan Sharqning buyuk daholari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy , al-Farg‘oniy , Abu Nasr Farobiy , Abu Ali ibn Sino , Abu Rayhon Beruniy hamda islom olamimning zabardast vakillari Imom Buxoriy , at-Termiziy , Abu Mansur al-Moturidiy , Burhoniddin al-Marg‘inoniy kabi olimlarning hayot yo‘li va faoliyati keng yoritilib, ularning jahon ilm-fani va madaniyatiga qo‘shgan hissasi manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan , asar , ilmiy meros , ta‘limot , qomusiy olim , Buxoro Xorazm, taraqqiyot, miqyos an-Nil Sharq ur-raisi, Muallim us-soniy, Bayt ul-hikma, aljabr, usturlub, rioziyot.

Vatanimizning , xalqimizning havas qilsa arzigulik o‘tmishi , g‘ururlansa arziydigan ajdodlari bor . O‘tmishga nazar tashlar ekanmiz beixtiyor faxr hissi paydo bo‘ladi. Ma‘lumki , hozirgi kecha-kunduzda Yangi O‘zbekistonda uchinchi renessans poydevori bunyod etilmoqda. Kelajak uchun dastlabki qadam moziyga nigoh tashlashdan boshlanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘qdir”. O‘lkamizda ilm-fanning jadal rivojlanishi IX- XIV asrlarga to‘g‘ri keladi. IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning madaniy hayotida yangi davr boshlandi. Arab xalifaligi hukmronligi tugab , mustaqil Somoniylar davlatining qaror topishi bilan madaniy hayotning jonlanishi uchun keng yo‘l ochildi. Buxoro , Samarqand , Urganch , Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshladi. IX-X asrlarda ayniqsa Buxoro shahri madaniy jihatdan yuksaldi. Poytaxtda – amir saroyida turli sohalarga oid qo‘lyozma kitoblar saqlanadigan kattagina kutubxonalar barpo etildi. Somoniy amirlarning aksariyati adabiyot , she‘riyat , ilm-fan , san‘at va me‘morchilikka homiylik qiladilar. Bu davrda Buxoroda ayniqsa she‘riyat ravnaq topadi. Uning rivojiga fors klassik poeziyasining buyuk vakillari Abu Abdulloh Ja‘far Rudakiy , Abu Mansur Daqiqiy ,Abulhasan Balxiy va ko‘pgina boshqa shoirlar g‘oyatda katta hissa qo‘shadilar. Bu davrda fors adabiy tili ancha rivij topgan bo‘lsada , ammo ilm-fan va adabiyotda arab tili muhim o‘ringa ega edi. Qayd etilishicha , Buxoro , Xorazm va Xurosonda 119 arabiy zabon shoirlar ijod qilgan . Ularning deyarli barchasi saroy ahli , hukmron xonadon a‘zolari va boshqa oliy tabaqa vakillaridan iborat bo‘lgan. Tilshunoslik , fiqh , musiqa , falsafa , matematika , tabobat , astronomiya , tarix va

boshqa fanlar bo'yicha ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilgan. Buxoro va boshqa markaziy shaharlarda islom dini ta'limotining asosiy manbalari va shariat bilimlarini o'qitish uchun madrasalar ham ochilgan edi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx kabi markaziy shahar bozorlarida alohida kitobsotiladigan rastalari bo'lgan. Ularda diniy va dunyoviy ilmlarning turli sohalar bo'yicha har xil tillardagi qo'lyozma kitoblar sotilgan. Ibn Sinoning yozishicha, u Buxoro bozoridan Abu Nasr Farobiyning "Aristotelning "Metafizika" asariga sharh " kitobini uch dirhamga sotib olgan. Bu kitobni o'qib chiqqach Ibn Sino qadimgi yunon faylasufi Arstotelning ta'limoti va falsafasining mohiyatiga tushunib yetgan.

Shahar madaniyatining ravnaqi, o'rta asrlar jamiyati, ziyolilari davrasining kengayib borishi shubhasiz somoniy hukmdorlarni ilm ahli bilan yaqinlashtirdi. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroyida olim, shoir va usta san'atkorlarni hamda turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlandilar.

Mustaqil Somoniylar davlatining tashkil topishi, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko'tarilishi madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Bu davr Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy va Abu Bakr Muhammad Narshaxiy kabi jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarni o'z bag'rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi. Islom Karimov aytganlaridek "...agar Yevropa Uyg'onish davrining natijalari sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo'ldi". Mashhur olim va dono mutafakkir Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa Ma'mun zamonida (813–833) "Bayt ul-hikma"da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Al Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Asarlari orasida, ayniqsa, matematikaga doir "Al-jabr val-muqobala" mashhur. Hatto, "algebra" atamasi ushbu kitobning "al-jabr" deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida "algoritm" atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning "Al-jabr" asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik hisoblash tizimining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb

etdi. Shunday qilib, vatandoshimiz Xorazmiy al jabrni mustaqil fan darajasiga ko‘tarib, algebra faniga asos soldi va tarixda o‘zidan o‘chmas iz qoldirdi. 1983-yilda Al Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi tantanali nishonlandi.

Saxovatli ona tuprog‘imiz , O‘zbekiston nomini avlodlarga ko‘z-ko‘z qilishga o‘z asarlari bilan hissa qo‘shib kelayotgan , “Bayt ul-hikma”da faoliyat ko‘rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy (797–865). U Farg‘ona vodiysining Quva shahrida tavallud topgani uchun Sharqda Al-Farg‘oniy, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug‘ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o‘rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Uning 812-yildagi Quyosh tutulishini oldindan bashorat qilishi , Yerning dumaloq shar shaklida ekanligini ochganligi olimga shuhrat keltirdi. 832–833-yillarda Suriyaning shimolida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridianining bir darajasi uzunligini o‘lchashda qatnashdi. 861-yilda al-Farg‘oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi sathini belgilaydigan “Miqyos an-Nil” inshooti va uning darajoti qayta tiklandi. Bizning davrimizgacha Ahmad al-Farg‘oniyning sakkiz asari saqlangan . Olimning “Al Farg‘oniy jadvallari” va “Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob “ Hindistonda , “Oy yerning ustida va ostida bo‘lganida vaqtni aniqlash “ risolasining qo‘lyozmasi Qohirada , “Yetti iqlim hidi “ asarining qo‘lyozmasi Germaniyada , “Usturlob yasash haqidagi kitob “ asarining qo‘lyozmasining to‘rtta nusxasi Berlin va Parijda saqlanmoqda. Uning “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” kitobi ham juda mashhur bo‘lib , XII asrdayoq lotin va ibroniy tillariga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Yevropada mashhur bo‘lgan alloma nomi XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga berilgan. Mustaqillik yillarida Ahmad al-Farg‘oniyning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. 1998-yil oktabrda alloma Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi nishonlandi. Quvada bog‘ barpo etilib , allomaning haykali o‘rnatildi. Uning boy ijodiy merosini o‘rganish va chop etish borasida ham ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi Prezidentimiz sa’y-harakatlari bilan Misr poytaxti Qohirada Ahmad Farg‘oniyga atab haykal o‘rnatildi.

Sharq allomalarining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Abu Nasr Farobiy (873–950) Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Farob shahrida tug‘ilgan. U avval ona shahrida, so‘ngra Samarqand, Buxoro va Bag‘dodda bilim olgan. Umrining oxirlarida Halab va Damashq shaharlarida yashagan. Farobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U 160 dan ortiq asar yozib, o‘rta asr ilm-fan va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shdi. Bular orasida “Arastuning “Metafizika” asariga

sharh”, “Musiqqa kitobi”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Tirik mavjudot a’zolari haqida”, “Fozil odamlar shahri” va boshqa ko’pgina asarlari muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g’oyalar bilan boyitganligidir. U o’rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. Farobiy yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ’ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o’zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo’shigani uchun Sharqda Arastudan (Aristotel) keyingi yirik mutafakkir – “Muallim us-soniy” va “Sharq Arastusi” nomlari bilan shuhrat topdi. Ba’zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. O’rta asr fanining rivoji va taraqqiyotida Farobiyning ilmlar tasnifi bo’yicha olib borgan ilmiy ijodiy ishlari g’oyatda qadrlidir. U “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Ilmlarning tasnifi haqida” va boshqa risolalarida o’sha davrda ma’lum bo’lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi. Umuman, Farobiy ilmlarning beshta asosiy turkumini ko’rsatadi:

1. Til haqidagi ilm (grammatika, poetika, to’g’ri yozuv va boshqalar. Jami yettita bo’limdan iborat).

2. Mantiq (sakkiz bo’limdan iborat).

3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og’irlik, mexanika.

4. Ilm at-tabiiy va ilm al-ilohiy-tabiiy va ilohiy ilmlaryoki metafizika.

5. Siyosat ilmi (ilmal-madaniy – shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudensiya (fiqh) va musulmon teologiyasi (kalam).

Xullas, Farobiyning ilmiy-falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma’naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun ilhom va ijod manbayi bo’lib xizmat qilaveradi.

Mashhur olimlardan biri tabobat ilmining asoschisi bo’lmish Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog’ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach, ustoz Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o’rganadi. O’n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo’yicha Sharq va G’arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o’rgandi. Ayniqsa, u tabobat ilmining qadimgi allomalari Abu Nasr Farobiy Abu Ali ibn Sino Gippokrat va Galen hamda o’rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyning (865–925) asarlarini puxta o’rganadi. Ibn Sino o’n yetti yoshidayoq e’tiborli hakim va olim bo’lib yetishadi. U amir Nuh ibn Mansurni davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Ibn Sino taqdir hukmi bilan Gurganchdagi (Urganch) Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi. U 1037-yilda vafot etadi va Hamadonda dafn etiladi. Ibn Sino 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan. Uning “Al-qonun fit-tib” (“Tib qonunlari”) nomli qomusiy asarida

kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Ibn Sino "Tib qonunlari"ni 5 kitobga bo'lgan. Uning "Al-qonun fit-tib" asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Abu Ali ibn Sino Sharqda "Shayx ur-ra'is", G'arbda esa "Avitsenna" nomlari bilan shuhrat topdi.

O'rta asrlarda Xorazmda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasining porloq yulduzlaridan biri, buyuk olim va mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (973–1048) Xorazmning Kat shahrida tug'ilib, Urganchda ta'lim olgan. Xorazmshoh Abul Abbas Ma'mun II saroyida to'plangan olimlar bilan birgalikda Ma'mun akademiyasida ijod qilgan. Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingach, Beruniy va boshqa olimlar bilan birga G'azna shahriga olib ketiladi va umrining oxirigacha shu yerda ijod qildi. Beruniy 1048-yilda G'aznada vafot etadi. Beruniy astronomiya, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha 160 dan ortiq asarlar yozgan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Geodeziya" kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o'zining astronomiyaga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatlari kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik kartasini tuzgan. Beruniy yevropalik olimlardan 450 yilcha oldin Amerika qit'asi mavjudligini taxmin qilib, o'z asarlarida bir necha bor yozgan. Beruniyning g'arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to'g'risidagi fikri XV–XVI asrlarda o'z tasdig'ini topdi. Beruniy Yer aylanasi uzunligini o'lchashda yangi usul – matematik usulni ishlab chiqdi. U birinchi bo'lib Yer shari globusini yaratgan. Beruniyning ilmiy va falsafiy ulkan merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi. Beruniy o'z ona vatani- Xorazm tarixi bo'yicha ham ("Xorazmning ajoyib kishilari") qimmatli asar yozib qoldirgan. Xullas, buyuk qomusiy olimimiz qalam tebratmagan sohaning o'zi yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. Olimning qaysi asarini ko'zdan kechirmaylik she'riy misralar, badiiy o'xshatishlarni uchramiz. Beruniyning ijodi bamisoli tengsiz xazina. Bu xazina bizning, xalqimizning ma'naviy boyligi, milliy iftixorimiz, g'ururimizdir. Uni o'rganish va bilish barchamizning burchimizdir.

IX-XII asrlar ma'naviy hayotida islom dini muhim rol o'ynay boshladi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasiga ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Bu davrda Movarounnahr aholisining ma'naviy va e'tiqodiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ma'lumki, ilk islomda jamiyatni huquqiy va mafkuraviy jihatdan boshqarish faqat Qur'on va hadis asosida olib borilgan. Biroq musulmon jamoalarining barcha huquqiy va axloqiy

masalalari Qur'onda qamrab olinmaganligi sababli VII asr oxiri- VIII asr boshlaridayoq hadislarini to'plab yozish boshlandi. Chunki hadislar Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblangan. IX-X asr boshlarida islom ulamolari orasida obro'li deb e'tirof etilgan hadislarining 6 ta to'plami yuzaga keldi. Bulardan sunna deb hisoblangan hadislardan "Sahihi Buxoriy" va "Sahihi muslim" eng mo'tabarlarini hisoblanadi. Movarounnahrdan Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy va Abu Iso at-Termiziy kabi hadisshunoslar yetishib chiqqan.

"Hadis ilmidagi Amir-ul muminiyn" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan muhaddis olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohimal-Mug'ira al-Buxoriy al-Jubfiy hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni, hozirgi hisobda 810-yil 20-iyulda Buxoroda tavallud topgan. 10 yoshga yetmasdan ilmi hadisni o'rganmoqqa kirishgan imom Buxoriy 11 yoshida ba'zi ustozlarining xatolarini topa boshlagan. Imom Buxoriy Muhammad (s.a.v.) hadisi shariflarini yanada chuqurroq o'rganish va ularni to'plab tartibga solmoq niyatida o'sha davrda islom fani olamining yirik markazlari bo'lmish Damashq, Kufa, Basra, Qohira, Bag'dod kabi shaharlarni kkezib chiqadi. Bu yerda u hadis ilmi bilan bir qatorda fiqhdan ham ta'lim va saboqlar oladi, yirik olimlar davrasida bahs-munozaralarda qatnashadi va ilmi toliblarga ta'lim ham beradi. Imom Buxoriy jami 600 ming hadislarini to'plaganlar. Shulardan 100 ming sahih va 200 ming g'ayri sahih hadislarini yoddan bilganlar. Hadis ilmi bobida imom Buxoriyga teng keladigan biror kimsa musulmon olamida bo'lmagan. Imom Buxoriydan ulkan va boy me'ros qolgan. U yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Olimning "Al-adab al-mufrad", "At-tarix as-sagir", "Kitob al-ilal", "Kitob al-kuna" va boshqa asarlari orasida shoh asar hisoblanmish "Al-jome as-sahih" asari 4 jildidan iborat bo'lib, islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to'plamlari orasida eng ishonarlisi va mukammalidir. Bu to'plamga 7275 ta eng sahih hadislar kiritilgan. O'sha davrdan to bugungi kunga qadar u islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi 2-o'rinda turuvchi muqaddas kitob, qimmatli manba hisoblanadi. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi el-yurt bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida" gi qarori asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley tantanalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi.

Islom olamida nom qozongan buyuk muhaddis olimlardan biri Muhammad ibn Iso ibn Sarva ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug'iy at-Termiziydir. U Termiz shari yaqinidagi Bug' qishlog'ida tavallud topgan. Yoshligidan ilm-fanga g'oyatda chanqoq bo'lgan at-Termiziy Termiz, Samarqand, Marv va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida yashab, ijod qilgan, muhaddis olimlarning asarlarini

zo‘r qiziqish va havas bilan o‘rganadi, buyuk hadisshunos olimlar bilan uchrashadi, ular bilan ijodiy bahs-munozaralarda qatnashadi. Xususan, bu borada olimning Xijoz, Makka va Madina, Iroq, Xuroson safarlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. At-Termiziy kamolotida Ismoil Buxoriyning o‘rni bebahodir. Ulug‘ muhaddis olim at-Termiziydan katta ilmiy-ma‘naviy meros qolgan. Olimning o‘ndan ortiq asari bor. Imom at-Termiziy 894-yilda 70 yoshida Termizda vafot etgan. At-Termiziyning ijodidagi aksariyat asarlarida tahorat, namoz, zakot, ro‘za, haj, nikoh, janoza, savdo-sotiq, hukmlar, qurbonlik, iymon, saxovat, jannat sifatleri, iymon, odob masalalari, Qur‘on fazilatleri, qiroat, tafsir, duolar kabi boblar bo‘lib, olim bir yoki bir necha hadisleri har bir masala bo‘yicha keltirib, masalani mohiyatini ochadi va o‘ fikrini bayon qiladi. At-Termiziy o‘z ilmiy merosi bilan bundan keyin ham xalqimizning ma‘naviyatini boyitish yo‘lida xizmat qilaveradi. O‘zbekiston jamoatchiligi 1990-yil sentabr oyida Muhammad bin Muso at-Termiziy tavalludining 1200 yilligini tantanali nishonladi.

Kalom ilmi ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma Abu Mansur al-Moturidiy (870–944) Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog‘ida tug‘ilgan. Al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, ma‘naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta‘lim berishga mo‘ljallangan qator asarlar yozgan. Ulardan “Kitob at-Tavhid” (“Allohning birligi”) va “Ta‘vilot ahl as-sunna” (“Sunniylik an‘analari sharhi”) nomli asarlerigina saqlanib qolgan. Ularda diniy ta‘limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida dunyoqarashining shakllanish mohiyati talqin etilgan. Al-Moturidiy 944-yilda Samarqandda vafot etgan. Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlerimiz tiklanayotgan Vatanimizda 2000-yil noyabrda Imom al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi. Samarqandda al-Moturidiy xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmuyi barpo etildi, asarlari o‘zbek tilida nashr etildi. Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida al-Moturidiy haqida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan:” Islom olamida “Musulmonlarning e‘tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘lishi bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi”.

Mashhur fiqh (huquqshunos) olim Burhoniddin al-Marg‘inoniy 1123-yilda Rishtonda (Farg‘ona vodiysi) tavallud topgan. Al-Marg‘inoniyning eng nodir asari to‘rt jildli “Hidoya” asaridir. “Hidoya” islom huquqshunosligi bo‘yicha mukammal asar bo‘lib, bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi huquqshunoslar uchun ham nazariy, ham amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tab kelgan. Kitob bir qancha tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda ham muhim manba sifatida foydalanib kelinmoqda. Shu sababli alloma nafaqat ulamolar, balki oddiy xalq orasida ham “hidoyat yo‘lining sarboni” deya katta hurmat-e‘tibor topti. Burhoniddin val-milla (Islom dinining dalili, isboti) degan sharafli nomga sazovor bo‘ldi. 2000-yilda al-Marg‘inoniyning 910 yilligi nishonlandi. Shu munosabat bilan Marg‘ilon shahri

markazida Burhoniddin Margʻinoniy yodgorlik majmuyi bunyod etilib, shu yerda uning ramziy maqbarasi oʻrnatildi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishim mumkinki , Oʻzbekistondek buyuk Vatanda , dunyo ilm-fani beshigini tebratgan allomalar yurtida dunyoga kelganimiz, biz , yoshlarga Alohning bir mukofotidir , desak mubolagʻa boʻlmaydi. Bizdan talab qilinayotgan yagona narsa esa bobolarimizdan meʻros boʻlib qolayotgan ilm-fan durdonalarini oʻrganish hamda ularga munosib avlod boʻlishdir. Bu barchamizning xalqimiz va ajdodlarimiz oldidagi asosiy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” – Maʼnaviyat nashriyoti , Toshkent-2008.
2. A.R.Muhammadjonov “Oʻzbekiston tarixi (IV asrdan XVI asr boshlarigacha)-Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi , Toshkent-2004.
3. R.Shamsutdinov , Sh. Karimov “Vatan tarixi”(1-kitob) – “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati , Toshkent-2010.
4. A.Muhammadjonov “ Oʻzbekiston tarixi “ - “Sharq “ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati , Toshkent – 2017.
5. Q.Usmonov , M. Sodiqov , S.Burxonova “Oʻzbekiston tarixi” – “Iqtisid-moliya” , Toshkent – 2016.
6. <https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1193>
7. <https://scholar.google.ru/citations?hl=en&user=TIZD1hAAAAAJ>
8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>
9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426147>
10. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426141>
11. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1365>
12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678098>
13. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1300>
14. [Tom 2 № 2 \(2022\): Maqola va tezislari 2022 \(buxdupi.uz\)](http://buxdupi.uz)
15. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/720>